

“CHITALPANING (CHITALPA TASHKENTENSIS T.S. ELIAS & WISURA) AYRIM
BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xalmuratov M.A.

b.f.n., DTPI

Isroilova D.F.

talaba, DTPI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11114990>

Annotatsiya. Ushbu maqolada denov dendrariysidagi Bignoniya-doshlar (*Bignoniaceae*) oilasiga mansub (*Chitalpa tashkentensis* T.S. Elias & Wisura) ning botanik tavsifi, tarqalish areallari, tabiatdagi oʻrni va gullash biologiyasi haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: *Chitalpa tashkentensis* T.S. Elias & Wisura, iqlim sharoiti, manzarali oʻsimliklar, introduksiya maxsudorligi, manzararali oʻsimlik.

"SOME BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHITALPA (CHITALPA
TASHKENTENSIS T.S. ELIAS & WISURA)

Abstract. This article presents information about the botanical description, distribution areas, place in nature and flowering biology of *Chitalpa tashkentensis* T.S. Elias & Wisura, a member of the *Bignoniaceae* family in the Denov arboretum.

Key words: *Chitalpa tashkentensis* T.S. Elias & Wisura, climatic conditions, ornamental plants, speciality of introduction, ornamental plant.

«НЕКОТОРЫЕ БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЧИТАЛПА
(CHITALPA TASHKENTENSIS T.S. ELIAS & WISURA)

Аннотация. В статье представлены сведения о ботаническом описании, ареале распространения, месте в природе и биологии цветения *Chitalpa tashkentensis* T.S. Elias & Wisura, представителя семейства *Bignoniaceae* в Деновском дендрарии.

Ключевые слова: Читалпа ташкентская Т.С. Элиас и Висура, климатические условия, декоративные растения, особенности интродукции, декоративное растение.

Mamlakatimiz shaharlarining va aholi punktlarini koʻkalamzorlashtirish bugungi kundagi holatini yaxshilash hamda uni muhofaza qilishdagi dolzarb muammolardir.

Chunki koʻplab iqlimlashtirilga oʻsimliklar koʻkalamzorlashtirishda, atrof - muhitning sanitariya gigiena hoatini yaxshilashda, shamol kuchini pasaytirishda, shovqinni kamaytirishda, havoni tozalashda va uni moʻtadillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Shunday o‘simliklar qatoriga kiruvchi Chetalpaning kelgusida mamlakatimiz xalq xo‘jaligida, jumladan, ko‘kalmazlashtirishda va aholi sog‘lig‘ini saqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi aniq.

Chitalpa daraxti *Chilopsis linearis* va *Catalpa bignonioides* ni chatishtirish usuli bilan olingan. Bu tadqiqotlar 1964 yil Toshkentdagi Nikolay Fyodorovich Rusanov nomidagi botanika bog‘ida amalga oshirilgan. 1977 yilda Robert Xebb Xilokatalpa ko‘chatini Nyu-Yorkskiy botanika botanika olib kelgan. 1991 yilda *Chitalpa tashkentensis* T.S. Elias & Wisura ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Sistematik holatiga ko‘ra,

Bignoniaceae – Bignoniyadoshlar oilasi,

Chitalpa - Chitalpa turkumi,

Chitalpa tashkentensis T.S. Elias & Wisura –Toshkent chitalpasi turi.

Bu o‘simlikning hayotiy shakli daraxt, bo‘yi 6-8 m. Barglari 10-30 sm, keng tuxumsimon.

Barg bandlari 16 sm gacha. Chitalpa o‘simligi manzarali o‘simlik sifatida juda yaxshi soya beradi va chiroyli gullaydi, ildizi o‘q ildiz bo‘lib, yon ildizlar ham yaxshi rivojlangan.

Chitalpa, barglarni to‘kuvchi daraxt hamda buta o‘simlikdir. Bo‘yi 6-8 metr balandlikka va 0,5 metr diametrga ega daraxt. Poya po‘stlog‘i kulrang, yosh novdalari siliq, shoxlari yuqoriga yo‘nalgan, kulrang, jigarrang, yashiroq, o‘sovchi novdaari yashil, sariq-yashil yoki qizg‘ish-jigarrang daraxt bo‘lib, barglari butun, panjasimon bo‘lakli yoki murakkab tok patsimon tuzilgan, doira shaklida joylashadi.

Gulari shingil yoki to‘pgul hosil qiladi, bir uyli o‘simlik. Gullarining rangi oq, uzunligi 4 sm gacha. Mevasi ko‘sakcha, silindrsimon, 20-35- (40) cm. Gulchalari yirik bo‘lib, keng shingilga yig‘ilgan, uzunliigi 12-15 sm, gultoijining pastki bargchasi ikki sariq chiziqli va ko‘p sonli to‘q qizil jigarrang nuqtali. May oyida gullaydi. Mevalarining uzunligi 15-20 sm dan iborat bo‘lib, daraxtni bezab turadi va qishda ham o‘z joyida osilib turadi. Yorug‘sevar tur, nam tuproqlarda ham yaxshi o‘sadi. Avtomobil va boshqalarning gazlarga o‘rtacha chidamli daraxt.

Unumdor tuproqlarda yosh ko‘chatlari tez o‘sib, bir yilda bir metrgacha o‘sish ko‘rsatkichiga ega bo‘ladi. Nisbatan kuchsiz, qumloq tuproqlarda va quruq loyli tuproqlarda ham bemalol o‘sa oladi. Ildiz tizimi tuproqning yuza qismida panjasimon ildiz otib tuproqni ximoyalash qobiliyatiga ega. Ammo bunday sharoitlarda yirik daraxt boyib yetisha olmaydi. 1 kg da 40-45 ming urug‘, 1000 dona urugining og‘irligi 20-24 gr dan iborat boladi. Ushbu daraxtning saqlangan urug‘i uch yilgacha ko‘karish xususiyatini yo‘qotmaydi. Daraxtdan tayyorlangan urug‘ qog‘oz yoki mato qopda saqlanadi. Ushbu daraxtiing urug‘i erta ko‘klamda yaxshi, tobida qizigan yer maydoni oldin suvga 2 kun ivitib qo‘yilib, so‘ng sepiladi. Uning ekilgan urug‘i tez unib chiqadi.

Urug'ı egatning har metriga 3-4 gr dan, 3-4 sm chuqurlikda ekib boriladi. Urug' kuzda ekilganda marza uqini qipiq yoki somon kabilar bilan bekitib chiqilsa foydali bo`ladi.

O'simlik nixollari nozik bo'lganligidan tez-tez sug'orib turiladi. Qalamchasidan ham ko'paytirish mumkin. Tez o'suvchi tur bo'lganligidan bir yoshli ko'chatidan ko'chirib o'tqazish mumkin.

Denov tumani iqlim sharoitida *Chitalpa tashkentensis* T.S. Elias & Wisura ning sutkalik harorat pasaygani sari havoning namligi ortishi xisobiga gullar ochilishi kamayadi. 15.05.2014 yilda 8⁰⁰ da ochilgan gullar soni 1% ni tashkil qildi, gullashning eng yuqori cho'qqisi 12⁰⁰ da, xavo xarorati 19°S nisbiy namlik 52% bo'lganda kuzatildi (35%), ya'ni 20 ta g'unchadan 7 tasi ochildi.

Mavsumiy gullash dinamikada esa 10-20 may kunlari eng ko'p 20-30 gullarning ochilishi kuzatildi. Bu paytda o'rtacha havo harorati 25⁰S va havo nisbiy namligi 53% ni tashkil etdi.

Shuningdek *Chitalpa tashkentensis* T.S. Elias & Wisura urug'dan ko'paya olish qobiliyati, yuqori haroratlarga munosabati jihatdan mahsuldorligi, kasalliklarga chidamliligi jihatdan bu introdusent o'simlikni ochiq dala sharoitida ko'paytirish mumkin.

Ayni vaqtda Chitalpa O'zbekistonning turli muhit sharoitlarida o'stirilmoqda.

Toshkent sharoitida N.F. Rusanov nomidagi botanika bog'ida iqlimlashtirilgan.

Respublikamizning shimoliy hududlarida jumladan Qoraqalpog'iston botanika bog'ining tashkil qilinishi bilan (1959) ko'p daraxtlar introduksiya qilinishi bilan Chitalpa ham iqlimlashtirilgan. *Chitalpa tashkentensis* T.S. Elias & Wisura O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limiga qarashli Nukus botanika bog'iga 1960-yili introduksiya qilingan. Qoraqalpog'iston janubida esa (Bo'ston sh.) Amir Temur Botanika bog'ida R. Babadjanovning ko'rsatishicha, bu turkumga oid Chitalpa duragaylarilari keng tarqalgan.

Bugungi kunda ko'kalamzorlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan istiqbolli o'simliklarning morfologik, biologik va o'ziga xos bo'lgan ekologik xususiyatlarni o'rganish ushbu o'simlikni Denov tumani iqlim sharoitidagi aholi punktlarida ko'paytirishga va ulardan keng foydalanishga imkon beradi.

Denov tumani *Chitalpa tashkentensis* T.S. Elias & Wisura barcha ontogenez bosqichlarini o'tadi. O'simlik tupi miqyosida g'unchalash boshlanishi xamda uning davomiyligi sababli gullash bir vaqtda kuzatiladi, mevalash boshqa fazalarga nisbatan birmuncha cho'zildi.

Demak *Chitalpa tashkentensis* T.S. Elias & Wisura introduksiya sharoitida ontogenezning bosqichlarini muvaffaqiyatli o'tashi, vegetativ ko'payish xususiyati, zarakunandalar bilan zararlanmasligi tufayli manzarali daraxt sifatida o'stirish imkoniyati keng xisoblanadi.

REFERENCES

1. Ашурметов О.А., Каршибаев Х.К. Особенности прорастания семян некоторых многолетних бобовых аридной зоны // Узбекский биологический журнал. – Ташкент, 2002. – № 2. – Б. 56-59.
2. Бабаджанов Р, Корчагина А.М. Ботанические сад на юге Каракалпакстана. // Интродукция и акклиматизация растений. Вып.28. Ташкент, 2003. С. 13-15.
3. Бейдеман И.Н. Методика изучения фенологии растений и растительных сообществ. – Новосибирск: Наука, 1974. – 154 с.
4. Белолыпов И.В. Краткие итоги первичной интродукции растений природной флоры Средней Азии в Ботаническом саду АНУзССР // Интродукция и акклиматизация растений. – Ташкент: Фан, 1980. – вып. 13. – С. 9-58.
5. Вайнагий И.В. О методах изучения семенной продуктивности растений // Бот. журн. – М., 1974. Т. 59. – С. 826-831.
6. Ёзиев Л.Х. Опыт интродукции древесных растений в Южный Узбекистан. Ташкент: Фан, 2001. 210 с.
7. Пономарев А.Н. Изучение цветения и опыления растений // Полевая геоботаника. Под ред. Е.М. Лавренко, А.А. Корчагина. – М.-Л.: АН СССР, 1960. – С. 9-11.
8. D. G. Sodikova, M. A. Xalmuratov, M. K. Namroyeva, Sh. U. Mardonov, and S. E. Toshmirov. Ecology of micromycetes of higher plants of the Denov Arboretorium. BIO Web of Conferences 105, 06003 (2024) <https://doi.org/10.1051/bioconf/202410506003>
9. D.G. Sodikova, B.S. Sodikov, Sh.U. Mardonov, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science **1112**, 012120 (2022). <https://www.doi.org/10.1088/1755-1315/1112/1/012120>
10. Тухтаев Б.Е. Биоэкологические особенности солеустойчивых лекарственных растений на засоленных землях // Интродукция и акклиматизация растений. – Ташкент: Фан, 2003. – вып. 28. – С. 115-118.
11. Хайитов И.Ю., Ёзиев Л.Х. Дуккаккилар оиласига мансуб дарахт ўсимликларини Жанубий Ўзбекистонда иқлимлаштириш ва уларнинг хўжаликдаги аҳамияти. Конф. Матер. Қарши, 1994. Б.42-44.